

suxan", ya'ni she'r o'g'irlash deb baholaydi [Chetindog' Y., ko'rsatilgan asar, 14-15-b].

Adabiyotshunos o'z asarida Navoiyga ergashib, uning asarlari ta'sirida g'azal yozgan, ya'ni nazira bog'lagan Ahmad Posho, Najotiy, Is'hoq Chalabiy, Boqiy, Sabuhiy Fuzuliy kabi shoirlar g'azallarini tahlil qiladi.

Asarning ikkinchi bobida Navoiyning usmonli turk she'riyatiga mansub tazkira va she'rlardagi ta'siri haqida bahs yuritiladi. Muallif Alisher Navoiy g'azallaridan ilhomlanib Fuzuliy, Muhiy, Kamolposhozoda, Lomeiy Chalabiy, Ahmad Posho kabi 70ga yaqin usmonli turk shoirlari va hukmdor ijodkorlari naziralar bitishganligini hamda shu orqali turk mumtoz she'riyatining yangi taraqqiyot davrini

boshlab berishganligini e'tirof etadi [Chetindog' Y., ko'rsatilgan asar, 35-36-b].

Kitobning uchinchi bobida esa XV-XVI asrlarda Onado'lida yashagan shoirlarning Navoiyga yozgan naziralariga to'xtalib, bu davrda Navoiy qalamiga mansub 267 g'azaliga usmonli turk shoirlari tomonidan bitilgan naziralarni keltirib o'tadi, ularning Navoiy g'azaliga hamohangligi, badiiyati, vazni bo'yicha tahlili to'liq beriladi.

Navoiyshunos Yusuf Chetindog'ning ushbu kitobi Turkiya va O'zbekiston navoiyshunoslari uchun muhim manba sanalib, bu ikki qardosh xalq o'rtasidagi o'zaro adabiy yaqinlikning yanada kuchayishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Koprulu F. Ali Shir Navai. – Istanbul, 1941, 5-s.
2. H.Boyqaro. Risola/Nashrga tayyorlovchilar A.Rustam, K.Hasan. – T., «Sharq», 1991, 12-b.
3. Haqqul I. Adabiy ta'sir va ilhom samaralari/"Y.Chetindog'. Alisher Navoiy va usmonli turk she'riyati" (N.Hasan va R.Ro'zmonova tarjimasini) kitobiga so'zboshi. – Toshkent, "Muharrir" nashriyoti, 2011, 5-b.
4. Çetindağ Y. Ali Shir Nevai'nin Usmanli şiirine etkisi. – Ankara, 2006, s.51-52.
5. Chetindog' Y. Alisher Navoiy va usmonli turk she'riyati (N.Hasan va R.Ro'zmonova tarjimasini). – Toshkent, "Muharrir" nashriyoti, 2011, 10-11-b.

INGLIZ ADABIYOTIDA MUALLIMA HAQIDAGI ROMAN XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ РОМАНА О ГУВЕРНАНТКАХ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

FEATURES OF GOVERNESS NOVEL IN ENGLISH LITERATURE

H.Muhammedova – falsafa doktori PhD.,
doss, O'zDJTU

Annotatsiya: Adibalar nasrida yaratilgan muallima haqidagi romanlarni yangi yondashuvlar asosida tadqiq etish, viktorian davri ingliz adabiyoti misolida uning o'ziga xosligi va uning tadrijini ijtimoiy jarayonlar kesimida o'rganish hamisha dolzarb sanalib kelgan. Shu ma'noda, mazkur romanlarning poetik strukturasini realizm ijodkorlari ijodiy merosi asosida tadqiq etish va muayyan nazariy umumlasmalar chiqarish, asarlardagi olamning badiiy manzaralariga doir poetik xususiyatlarni tahlil etish va o'rganish hozirgi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: guvernantka, o'qituvchi, roman, xususiyat, viktorian davr, ayol, tip.

Аннотация: Изучение романов о гувернантках в прозе писателей на основе новых подходов, изучение их специфики на примере викторианской английской литературы и ее эволюции в контексте социальных процессов всегда было актуальным. В этом смысле изучение поэтической структуры этих романов на основе творческого наследия реалистов и выдача определенных теоретических

обобщений, анализ и изучение поэтических особенностей художественного описания мира в произведениях является одной из актуальных задач и вопросов современной литературы.

Ключевые слова: гувернантка, педагог, учитель, роман, особенность, викторианский период, женщина, тип.

Annotation: The study of governess novels in the prose of writers based on new approaches, the study of its specific features on the example of Victorian English literature and its evolution in the context of social processes has always been relevant. In this sense, the study of the poetic structure of these novels on the basis of the creative heritage of realists and the issues of certain theoretical generalizations, the analysis and study of the poetic features of the artistic description of the world in the works is one of the urgent tasks and issues of modern literature.

Key words: governess, teacher, novel, feature, Victorian period, woman, type

Jahon adabiyotida yaratilgan shoh asarlar orasida guvernantka ya'ni muallima haqidagi romanlar ham uchraydi. Mazkur roman tipi o'ziga xos tarixga ega bo'lib, bugungi kunda faqat ayrim adibalar ijodiga xos deb baholanadi. XIX asr ayollarni faqat uy bekasi, xizmatkor, ishchi va guvernantka sifatida faoliyat olib borishi mumkinligini ko'rsatdi. Aynan ta'lim orqaligina guvernantkalik ya'ni muallimalik kasbi ayollarning tafakkuri kengligini va hatto ular ham jamiyatning peshqadam vakillari safida bo'la olishi mumkinligini isbotladi.

Tahlilga tortilgan mazkur tipdagi romanlar viktorian ingliz adabiyotida 1820-1840 yillar orasida shakllandi. Hozirgi kungacha guvernantka tipdagi roman sifatida opa-singil Brontelar tomonidan yaratilgan "Jeyn Eyri" va "Agnes Grey" asarlari kitobxonlar tomonidan mutoola qilinib kelinmoqda. Ikkala asarda ham ta'lim va tarbiya masalasiga alohida e'tibor bilan yondashilgan. Mualliflar asar qaxramonining erkini ijtimoiy mavqega uzviy bog'liq ravishda tarsvirleydi va asosiy e'tiborini personajning ma'naviy, xushaxloq bo'lib ulg'ayishiga qaratadi.

Enn Bronte ijodining xarakterli jihati ham ta'kidlab o'tilgan masalani shaxsiy tajribasidan kelib chiqqan holda tasvirlashi edi. Ingliz tadqiqotchisi Elizabet Jey asarda tasvirlangan timsoldan ko'ra ko'proq uning muhimligini isbotlash ko'zda tutilganligini ta'kidlab o'tadi [1, 280]. Viktorian Angliyada guvernantka so'zi birgina o'qituvchini emas balki, kunlik guvernantka, maktab muallimasi yoki musiqa va raqs muallimasini ham anglatgan. M.J.Piterson fikriga ko'ra

guvernantka misolida viktorian jamiyatda oila bilan birgalikda guvernantkaning o'rni ham mavjud bo'lganligini ko'rishimiz mumkin [8,152]. Ular turli yoshga mansub o'quvchi qizlarni o'qitishga mas'ul bo'lganlar.

XIX asrda guvernantka sifatida faoliyat olib borish yangilik emas edi. Okford ingliz tili lug'atiga ko'ra 1587 yilda birinchi marta guvernantka "woman who has a charge or control of a person esp. a young one – maosh oluvchi ayol yoki asosan yosh shaxsni nazorat qiluvchi" ma'nosini anglatishi ko'rsatib o'tilgan. XIX asrdan oldin guvernantkalik bilan yuqori tabaqa vakillari ham shug'ullanishgan. Ammo guvernantkaga bo'lgan talab tufayli o'rta tabaqaga mansub ayollar soni keskin ko'paydi. Natijada ehtiyoj tufayli o'rta tabaqaga mansub ayollar soni keskin darajada yuqori tabaqaga nisbatan ko'pchilikni tashkil etdi. Guvernantka sifatida faoliyat yurituvchi o'rta tabaqaga mansub ayollar soni viktorian davrda keskin ko'tarildi.

1815 yilda Elizabet Eppleton guvernantkalik so'ngi qirq yil ichida keng taraqqiy etganligini ta'kidladi [1,26]. M.J.Piterson fikriga ko'ra viktorian davrning o'rtalariga kelib guvernantkalar soni mamlakatda yigirma besh mingni tashkil etganligini va bu vaqtda yetmish besh ming nafar ayol xizmatkorlar mavjud bo'lganligini ham aytib o'tadi [8,141]. Elizabet Rigbi esa guvernantka xush-axloq va ta'lim ammo qiymati arziyas bo'lgan mulkdor bo'lganligini ta'kidlagan [9,79]. Uy yumushlari bilan band bo'lgan xizmatkorga qaraganda guvernantka oylik maoshda ozgina farq qilishini aytmaganda ko'p ham xizmatkor

ayoldan farq qilmasdi. Ingliz tadqiqotchisi Meri Meks guvernantka bu oilada mavqei noaniq bo'lgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi[5, 398].

1834 yilda "The Christian Ladies Magazine" jurnalida guvernantkalik na jamiyatda va na oilada o'rni aniqlanmagan g'ayrioddiy shaxs bo'lib, ular na oila xizmatkori va na oila do'sti bo'lganligi xaqida izoh berilgan [10,42]. Guvernantka tipidagi roman mualliflari anonim tarzda o'z ishlarini nashr etishgani uchun ular xaqida ma'lumotlar juda kam saqlanib qolingan. Ularning ayrimlari xristian nomlari bilan nomlangan. Britaniya kutubxona katalogida ularning ayrim ismlari jumladan, miss Ross, Eliza Chip, Sara Meri Fitton va X.S imzosi qayd etilgan.

Elizabet Xem va Ellen Vitonlar jurnalida 1810-1820 yillarda o'rta tabaqa oilalaridagi guvernantkalar hayoti haqida maqolalar va biografik voqealar nashr etildi[3, 47-74]. Jumladan, Emilina Lotning "Egiptdagi ingliz guvernantka: Yegipt va Konstantinopoldagi xaram hayoti - The English Governess in Egypt: Harem Life in Egypt and Constantinople (1865)", Anna Leonovsning "Siam sudidagi ingliz guvernantkasi - The English Governess at the Siamese Court (1870)" asarlaridir. Bundan tashqari 1846 yilda Anna Jeymson "Onalar va guvernantkalar o'rtasidagi o'xshashlik - The Relative Position of Mothers and Governesses", Meri Mauris "Onalar va guvernantkalar - Mothers and Governesses" (1847) kabi asarlarni yaratdi.

1966 yilda Inga Stina Ivbankning "Their Proper Sphere: A Study of the Bronte Sisters as Early-Victorian Female Novelists" tadqiqotida guvernantka atamasini ishlatdi va "Agnes Grey" asari M.Shervudning "Guvernantka Kerolayn Mardaunt - Caroline Mordaunt, the Governess", J.Blessington

"Guvernantka - The Governess", Sivel "Emi Xerbet - Amy Herbert" kabi asarlari bilan juda ko'p umumiylik borligini ta'kidlaydi. Uning bunday qarashlari 1997 yilda Jerom Bitining "Jeyn Eyr va Janr - Jane Eyre and Genre" hamda "Misreading Jane Eyre: A Postformalist Paradigm" kabi tadqiqotlar olib borishiga turtki bo'ldi[2, 259]. Syuzan Nax guvernantka tipidagi asarlar o'zining muhimligini saqlab qoldi ammo, uni yaxlit asar janr sifatida baholash murakkabdir. Bunga sabab esa viktorian hikoya turlari bilan adashtirishlaridir [7, 188].

Mazkur davrda yaratilgan asarlarning barchasida guvernantka ya'ni muallima qiyofasi tasvirlangan. Biroq ahamiyatli tarafi shundaki bu asarlarning hammasi ham bitta tipga emas balki bir nechta tipga mansubligidadir. Juliyan Mitchell janrlar adabiyotda o'zini mavzu sifatida kashf etsagina shakllanishi mumkinligini takidlaydi[6, 48]. Mariya Fovley esa Bronte guvernantka qiyofasini ishlayotgan ayol bilan uy bekasi o'rtasidagi farqni ko'rsatib berish uchun tasvirlaganini qayd etgan[11, 27]. 1749 yilda Sara Filding "Guvernantkalar yoxud ayollarning kichik akademiyasi- The Governess, or, the Little Female Academy" asarida guvernantka emas aynan o'qituvchini badiiy xarakterini tasvirlab bergan.

Guvernantka tipidagi asar mualliflari realistik roman an'analariga rioya qilgan holda inson harakterining turli qirralarini ta'lim-tarbiya orqali ochib berishadi. Adibalarni imkonsiz sharoitda qolgan oddiy guvernantkalar taqdiri qiziqtiradi. guvernantkalarni mualliflar bo'yoqlarsiz tasvirlaydi. Mazkur obrazda hayotda muhim masalalar yuzasidan o'z fikriga ega bo'lgan, hayotida aql idrokni va ezgulikni muhim hisoblagan shaxs namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Appleton E. Private education or Practical Plan for studies of young Ladies. London: printed for Henry Colburn 1816. -P. 350.
2. Beaty J. Jane Eyre and Genre. Misreading Jane Eyre. Ohio State University Press 1996. -P. 259.
3. Gillett E. Elizabeth Ham by herself 1783-1820.London: Faber and Faber Limited 1945. -P. 170, Hall E. Miss Weeton Journal of a Governess. Vol I. 1807-1811, -P. 170, Vol II. 1811-1825. London: Oxford University Press 1936- 1939. -P. 170.